

MAJBURIY SUG'URTA TUSHUNCHASI VA UNING HUQUQIY JIHATDAN TARTIBGA SOLINISHI

Xurramov Sarvar Anvar o'gli

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti talabasi

Annotatsiya : Insonlar fuqarolik munosabatlarida qatnashayotganda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatar oldini olish uchun o'z javobgarligini majburiy sug'urta qilishadi. Ushbu maqolada majburiy sug'urta tushunchasi, uning kelib chiqishi tarixi uni keng qo'llanilayotgan turlari transport vositalari egalarining o'z fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish majburiyati, tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish va boshqalarni huquqiy jihatdan amalga oshirishning tartibga solinishi haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: majburiy sug'urta, sug'urta polisi, Hammurapi kodeksida, zamonaviy sug'urta, Bobil, sug'urta to'voni, sug'urtalash, sug'urtalovchi, sug'urta bozori, sug'urta qildiruvchi.

Ijtimoiy hayotning ba'zi sohalarida kishilar yoxud fuqarolik huquqining boshqa subyektlari o'zlari qatnashayotgan muayyan huquqiy munosabatlarda tavakkalchilik xavf-xatari nisbatan yuqori darajada bo'ladi. Ana shunday hollarda barcha subyektlar ham bunday tavakkalchilik xavf-xatarlardan o'zini ixtiyoriy sug'urta orqali himoyalaniish imkoniyatidan foydalanishmaydi va beparvolik bilan munosabatda bo'ladilar. Biroq hayot tasodiflarga boy, ularning ba'zilar ishxonada, ko'chada, transport vositasida baxtsiz hodisalarning qurboni bo'ladilar. Bu esa ular uchun muayyan muammoli vaziyatlarni, moddiy qiyinchiliklarni vujudga keltiradi. Xuddu shunday holatlarni oldini olish maqsadida davlat tomonidan majburiy sug'urtani turlari belgilab qo'yilgan.¹

Fuqarolik kodeksining 922-moddasida majburiy sug'urta haqida shunday ko'rsatib o'tilgan: Qonunchilikda ko'rsatilgan boshqa shaxslarning sog'lig'i, hayoti yoki mol-mulki ularning sog'lig'i, hayoti yoki mol-mulkiga ziyon yetkazilishi ehtimolini nazarda tutib;

boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga zarar yetkazilishi yoxud boshqa shaxslar bilan tuzilgan shartnomalarning buzilishi oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan o'zining fuqaroviy javobgarligi xavfi.

Sug'urta qildiruvchi bo'lish majburiyati qonunda ko'rsatilgan shaxslar zimmasiga yuklanadi.² Sug'urtaning tarixi qadimgi dunyoga borib taqaladi. Asrlar davomida u odamlarni turli xavf-xatarlardan himoya qiluvchi zamonaviy biznesga aylandi. Qadimgi dunyoda sug'urtaning birinchi shakllari Bobil va Xitoy savdogarlari tomonidan qayd etilgan. Tovarlarini yo'qotishni cheklash uchun savdogarlar o'z buyumlarini dengizlardan o'tishi kerak bo'lgan turli xil kemalar o'rtasida taqsimlashardi. Yo'qotishlarni cheklashning birinchi hujjatlashtirilgan usullaridan biri miloddan avvalgi 1750-yilda yozilgan Hammurapi kodeksida qayd etilgan. Ushbu usulga ko'ra, qarz oluvchi savdogar yuk o'g'irlangan taqdirda kredit bekor qilinishini kafolatlash evaziga qarz beruvchiga qo'shimcha pul to'laydi. Birinchi bo'lib o'z xalqini sug'urta qilgan ahamoniylar monarxlar bo'lib, sug'urta yozuvlari notarial idoralarga topshirilgan. Sug'urta, shuningdek, muhim sovg'alar uchun ham qayd etilgan. Bu sovg'alar monarxlarga berilgan. Sovg'alarini ro'yxatga olish kitobiga yozib qo'yish orqali, sovg'a beruvchilar, agar ular muammoga duch kelsalar, sovg'aning mavjudligini isbotlash orqali monarxdan yordam oladilar.

Zamonaviy sug'urta 1666-yilda sodir bo'lgan Londondagi Buyuk yong'inga borib taqaladi. U 30 000 dan ortiq uylarni vayron qilgandan so'ng, Nikolas Barbon ismli kishi qurilish sug'urtasi biznesini boshladi. Keyinchalik u shahardagi birinchi yong'indan sug'urta kompaniyasini taqdim etdi. Baxtsiz hodisalardan sug'urtalash 19-asrning oxirida mavjud edi va u zamonaviy nogironlik sug'urtasiga juda o'xshash edi.

¹ Fuqarolik huquqi (Darslik, 2-qism) 2019 422-424 betlar

² O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksi – T. "Toshkent-2022"

AQSh tarixida birinchi sug'urta kompaniyasi Janubiy Karolinada joylashgan bo'lib, 1732 yilda yong'inni qoplashni taklif qilish uchun ochilgan. Benjamin Franklin 1750-yillarda halokatli yong'inlarning binolarni vayron qilishiga yo'l qo'ymaslik uchun badal yig'adigan kompaniyani ochdi. 1800-yillar kelishi va o'tishi bilan sug'urta kompaniyalari hayotni sug'urtalash va boshqa bir qancha sug'urta turlarini o'z ichiga olgan holda rivojlandi. 1930-yillarga qadar Qo'shma Shtatlarda hech qanday sug'urta turi majburiy emas edi. O'sha paytda hukumat ijtimoiy ta'minotni yaratdi. 1940-yillarda inson sug'urtasi paydo bo'ldi. Bu Ikkinchi jahon urushi paytida erlari halok bo'lgan ayollarning moliyaviy qiyinchiliklarini engillashtirishga yordam berdi. Faqat 1980-yillarga kelib avtomobil sug'urtasiga bo'lgan ehtiyoj yetarlicha oshib, uni majburiy qilish choralari ko'rildi. Garchi sug'urta tashkil etilgan biznes bo'lsa-da, u hali ham o'zgarib bormoqda va kelajakda iste'molchilarning o'zgaruvchan ehtiyojlarini qondirish uchun o'zgaradi.

Hozirgi vaqtda mamalakatimizda quyidagi majburiy sug'urta turlari keng qollanilmoqda:

1. Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtasi:
2. Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtasi:
3. Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtasi.

Yuqoridagi majburiy sug'urta shartnomalari ommaviy shartnoma turiga kiradi, ya'ni ular qonun normalarida bilgilab qo'yilgan tartibda va shartlarda amalga oshiriladi. Majburiy sug'urta shartnomasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab qo'yilgan normalar asosida namunaviy qolipga mos tuziladi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda yo'llarning yaroqsizligi, haydovchilarning o'zga ishonchidan, nazoratni yoqotishidan va boshqa sabablarga avtohalokatlar yuz bermoqda, natijada kimnidir hayoti, sog'ligi va mulkiga shikast yetmoqda shu va shu kabi hodisalarni oldini olish uchun transport vositalarining egalarini fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish muhim ahamiyatga ega.

Transport vositasidan foydalanishda transport vositalari egalarining jabrlanuvchilar hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash bo'yicha fuqarolik javobgarligi qonunchilikka muvofiq yuzaga kelishi bilan bog'liq bo'lgan mulkiy manfaatlari majburiy sug'urta obyektidir.

„Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida“gi qonunning 6- moddsiga ko'ra fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish majburiyati quyidagi transport vositalarining egalariga nisbatan tatbiq etilmaydi:

eng yuqori tezligi soatiga 20 kilometr dan yuqori bo'lmagan transport vositalari;

tirkamalar va 2 ta, 3 ta g'ildirakli yoki ish hajmi 50 kub santimetrgacha bo'lgan dvigatel yoki inson yoxud hayvon kuchi bilan harakatga keltiriladigan boshqa barcha transport vositalari;

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga qarashli avtotransport vositalari, ammo O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining xo'jalik faoliyatini ta'minlash maqsadida foydalaniladigan avtobuslar, yengil avtomobillar, boshqa barcha transport vositalari mustasno;

chet davlatda ro'yxatga olingan transport vositalari, agar ular egalarining fuqarolik javobgarligi O'zbekiston Respublikasi hududida amal qiladigan xalqaro majburiy sug'urta tizimlari atrofida sug'urtalangan bo'lsa.

Transport vositasiga egalik qilish huquqi vujudga kelganda transport vositasi egasi o'zining egalik qilish huquqi vujudga kelgan vaqtdan e'tiboran 10 kundan qoldirmay o'z fuqarolik javobgarligini sug'urtalashi kerak.

Egalarining fuqarolik javobgarligi sug'urtalanmagan transport vositalaridan O'zbekiston Respublikasi hududida foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi ichkarisiga kirib kelganda va O'zbekiston Respublikasi hududida amal qilinadigan xalqaro majburiy sug'urta tizimlariga qarashli sug'urta polislarini amal qilmagan taqdirda, chet davlatda ro'yxatga olingan va O'zbekiston Respublikasi hududida vaqtincha foydalanilayotgan avtotransport vositalari egasi o'zining fuqarolik javobgarligini sug'urtalashi kerak.

Shuningdek fuqarolik javobgarliklari yuzaga kelishi sug'urta holati hisoblanmaydigan holatlar quyidagilar:

majburiy sug'urta bo'yicha sug'urta polisida ko'rsatib o'tilmagan transport vositasidan foydalanilganda ziyon yetkazilganligi;

ma'naviy zarar yetkazilganligi va boy berilgan foydaning o'rnini qoplash majburiyatining yuzaga kelganligi;

avtotransport vositasidan maxsus ajratilgan maydonlarda musobaqalar, sinovlar yoki o'quv mashqlari vaqtida foydalanilganda ziyon yetkazilganda ;

atrof muhitning ifloslanganligi;

tashilayotgan yuk ta'sirida ziyon yetkazilganda , agar bunday javobgarlik majburiy sug'urtaning taluqli turi to'g'risidagi qonun asosida majburiy sug'urta qilinishi shart bo'lsa;

xodimlar xizmat yoki mehnat majburiyatlarini bajarayotganida ularning sog'lig'iga yoki hayoti shikast yetkazilganligi, agar bu zararining o'rnini majburiy sug'urtaning tegishli turi to'g'risidagi qonunga muvofiq qoplanishi kerak bo'lsa;

xodimga ziyon yetkazilganligi tufayli kelib chiqqan zararining o'rnini ish beruvchi tomonidan qoplash majburiyati;

yo'lovchilarning sog'lig'i, hayoti hamda mol-mulkiga zarar yetkazilganligi tufayli kelib chiqqan zararlarining o'rnini tashuvchi hisobidan qoplash majburiyati;

haydovchining o'zi boshqarayotgan avtotransport vositasiga va uning tirkamasiga, ularda tashilayotgan yukga va ularga o'rnatilgan uskunaga ziyon yetkazganda ;

yukni ortish hamda uni tushirishda, shu bilan birga transport vositasi mazkur transport vositasining egasi bo'lgan tashkilot, muassasa yoki korxonada ichida harakatlanayotganida ziyon yetkazilganligi;

nodir va boshqa noyob buyumlarga, moddiy madaniy meros obyektlariga, qimmatbaho va boshqa qimmatbaho toshlardan va metallardan ishlangan buyumlarga, diniy qadriyatga ega buyumlarga va intellektual faoliyatning boshqa turlari , naqd pulga, qimmatli qog'ozlarga, bundan tashqari chet el valyutasiga zarar yetkazilganligi yoki ularning nobud qilinganligi;

jabrlanuvchining sug'urta hodisasi yuzaga kelishiga qaratilgan qasddan qilingan harakatlari natijasida zion yetganligi.

Jabrlanuvchilarga zarar yetkazilishiga olib kelgan yo'l-transport hodisasi ishtirokchisi bo'lgan sug'urta qildiruvchi mazkur hodisaning boshqa ishtirokchilari talabiga ko'ra ularga ushbu transport vositasi egalarining fuqarolik javobgarligi sug'urtalangan majburiy sug'urta shartnomasi to'g'risidagi ma'lumotlarni xabar qilishi shart.

Sug'urta qildiruvchi yoki uning vakili sug'urta hodisasi sodir bo'lganda:

jabrlanuvchiga 3 kalendar kundan kechiktirmay sug'urta polisining nusxasini topshirishi;

tezda, biroq majburiy sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan muddatdan kechiktirmay, sodir bo'lgan voqea haqida yozma tarzda, sug'urta polisining nusxasini ilovasini sug'urtalovchiga yoki uning filialiga va yo'l-transport hodisasi ro'y bergan joydagi va avtotransport vositasi ro'yxatga olgan joydagi davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmatiga bildirishi.

Bildirishnomada hodisani barcha xususiyati, sodir bo'lgan vaqti, ko'rilishi taxmin qilingan ziyonning miqdori, yo'l-transport hodisasiga aloqador barcha insonlarning, shuningdek taxmin qilingan da'vogarlarining nomlari va manzillariga taalluqli axborot imkon boricha to'liq hajmda, shu bilan birga sug'urta qildiruvchi hodisa haqida birinchi marotaba qay tarzda xabardor bo'lganligi va sug'urta qildiruvchining nima uchun hodisani talabnoma bildirishga sabab bo'lishi lozim deb hisoblashiga oid tafsilotlar majburiy tartibda ko'rsatilishi shart;

sug'urtalovchiga sug'urta voqeasi munosabati bilan unga qarata qo'yilayotgan barcha talablar yoki unga qarshi boshlangan sud muhokamasi to'g'risida tezda xabar qilishi, ziyon yetkazilishi holatlari to'g'risidagi hamma ma'lumotlarni va vakolatli organdan olingan, sug'urta hodisasining sababi va oqibatini, zararining xususiyati va miqdorini aniqlash uchun lozim bo'lgan hujjatlarni sug'urtalovchiga topshirishi;

yo'l-transport hodisasi to'g'risidagi xabarnoma tuzilgan vaqtdan e'tiboran uch ish kuni ichida mazkur xabarnomani materiallar va hujjatlarni ilova qilgan holda sug'urtalovchiga taqdim etishi;

zararning oldini olish va kamaytirish yuzasidan mumkin bo'lgan barcha choralarni ko'rish kerak.

Agar jabrlanuvchi sug'urta to'loviga bo'lgan o'z huquqidan foydalanish niyatida bo'lsa, u sug'urtalovchiga o'z hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga yetkazilgan zararning o'rnini sug'urta puli doirasida qoplash to'g'risidagi talab bilan yozma ariza yuborishi shart.

Jabrlanuvchining yoki uning merosxo'rlarining yoxud uning huquqiy vorislarining sug'urta to'lovi to'g'risidagi talabi ko'rsatilgan arizasi quyidagilarning asli yoki nusxalari ilova qilingan holda sug'urtalovchiga yoki uning filialiga yuboriladi:

Zarar yetkazilganligi faktlarini va zararning miqdorlarini tasdiqlovchi hujjatlar ;
mol-mulkka zarar yetkazilganligi faktini va zarar miqdorini tasdiqlovchi hujjatlar ;
jabrlanuvchining shaxsini tasdiqlovchi hujjat;

meros huquqini yoki huquqiy vorislikni olganliklarini, shu bilan birga merosxo'rlarning shaxsini yoki huquqiy vorislarning davlat ro'yxatidan turgan tasdiqlovchi hujjatlar .

Agar foydalanilayotganda jabrlanuvchining hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga zarar yetkazgan transport vositasi egasining fuqarolik javobgarligi sug'urtalanmagan yoki egasi noma'lum bo'lsa, jabrlanuvchi kompensatsiya to'lovini olish huquqiga ega bo'ladi.

XX – XXI asrda sanoat va ishlab chiqarish misli ko'rilmagan darajada rivojlandi va hozir ham rivojlanishda davom etmoqda , sanoat rivoji barobarida og'ir yoki noqulay ish sharoitlari va hokzolar ta'sirida ishchilarning sog'lig'iga ham shikast yetmoqda . Bunday holatlarda ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtasi muhim ahamiyatga ega .

„Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risidagi” qonunning 4-moddasida bu shartnomaning mazmuni quyidagicha ochib berilgan:

Xodim o'zining mehnat vazifasini bajarishi bilan bog'liq holda mehnatda mayib bo'lishi, kasb kasalligiga yuqishi yoki sog'lig'ining boshqacha tarzda ziyon yetishi munosabati bilan uning hayoti yoki sog'lig'iga yetkazilgan ziyonning o'rnini qoplash bo'yicha ish beruvchi o'z fuqarolik javobgarligini qonunda ko'rsatilgan tartibda va shartlar asosida sug'urtalashi kerak .

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi sug'urta hodisasi yuz berganda ish beruvchiga va jabrlanuvchiga yoxud naf oluvchiga xodim o'z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda mehnatda mayib bo'lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishi munosabati bilan uning hayoti yoki sog'lig'iga yetkazilgan zararning o'rnini ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha shartlashilgan haq evaziga sug'urta puli doirasida qoplash majburiyatini oladi.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi ish beruvchi va sug'urtalovchi orasida tuziladi. Bu shartnomani tuzishga ish beruvchining yozma shakldagi arizasi kerak bo'ladi.

„Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risidagi” qonunning 12-moddasida zararning miqdorini aniqlash haqida quyidagicha so'z yuritilgan:

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnoma bo'yicha sug'urta to'voni yetkazilgan ziyon miqdorida, ammo sug'urta puli miqdoridan ortiq bo'lmagan miqdorda qoplab beriladi .

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishda sug'urta to'voni:

jabrlanuvchi mehnatda mayib bo'lgunigacha berilgan o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan foiz hisobidan, uning kasbiga doir mehnat qobiliyatlarini yo'qotganlikgi darajasiga qarab belgilanadigan har oylik to'lov yoki kasb kasalligi aniqlanguniga vaqtgacha olgan o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan foiz miqdorida belgilanadigan tartibda har oylik to'lov;

marhumning oldingi o'rtacha oylik ish haqiga teng , uning o'zi uchun va qaramog'ida bo'lgan, ammo yetkazilgan zararning miqdori qoplanishiga haqli bo'lmagan, mehnatga qobiliyatli shaxslarga to'g'ri keladigan hisobda chegirib tashlangan holatdagi har oylik to'lovlar ;

qonunda ko'rsatilgan hollarda jabrlanuvchiga yoinki naf oluvchiga bir marotaba beriladigan nafaqa to'lovi;

xodim vafot etganda ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasida ko'rsatilgan miqdorda dafn etish uchun xarajatlari;

ish beruvchining qo'shimcha xarajatlarini qonunga belgilangan kompensatsiya amalga oshiriladi.

Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori qonunda nazarda tutildan tartibda oshirilganda, xodimning hayoti yoki sog'lig'iga ziyon yetkazilganligi munosabati bilan zararining miqdori qoplashning korsatilgan summasi mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining oshirilishiga mutanosib tarzda ko'paytiriladi.

Bunda zarar o'rini qoplashning ko'paytirilgan summasi qonunda o'rnatilgan tartibda qo'shimcha tarzda to'lab beriladi .

Ayni vaqtlarda tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi ham keng qo'llanilayotgan majburiy sug'urta shakllaridan biri hisoblanadi.

Bu borada huquqiy jihatdan tartibga solishda „Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida” qonun muhim ahamiyat kasb etadi . Shu qonuning 6-moddasida shartnoma mazmuni shunday keltirilgan:

Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi ommaviy shartnomalar turiga mansubdir.

Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasiga ko'ra, sug'urtalovchi sug'urta hodisasi sodir bo'lganda jabrlanuvchiga yoki naf oluvchiga yoxud tashuvchiga yo'lovchilarning hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga yetkazilgan zararining o'rini mazkur shartnoma bo'yicha shartlashilgan haq evaziga sug'urta puli doirasida qoplash majburiyatini oladi.

Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi tashuvchi va sug'urtalovchi orasida tuziladi. Mazkur shartnomani tuzish uchun tashuvchining yozma tarzdagi arizasi kerak bo'ladi.

Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasida keltirilishi kerak bo'lgan shartlarning to'liq bo'lmaganligi holatida javobgarlik sug'urtalovchining zimmasida bo'ladi.

Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi 1 yil muddatga tuziladi.

Yo'lovchilarni va ularning qarashli mol-mulkini avtomobilda tashishni amalga oshiruvchi tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi 3 oydan 1 yilgacha bo'lgan vaqt ichida tuzilishi mumkin.

Bu shartnomada quyidagi holatlar sug'urta hodisasi hisoblanmaydigan fuqarolik javobgarligining yuzaga kelishi hisoblanadi:

ma'naviy zarar yetkazilganligi va boy berilgan foydaning o'rini qoplash majburiyati yuzaga kelganligi;

qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlardan va metallardan ishlangan buyumlarga, nodir va boshqa noyob buyumlarga, san'at asarlariga, qo'lyozmalarga, noyob audiovizual asarlarga hamda intellektual faoliyatning boshqa natijalariga, diniy qadriyatga ega buyumlarga, naqd pulga, qimmatli qog'ozlarga, shuningdek chet el valyutasiga zarar yetkazilganligi yoki ularning nobud qilinganligi;

yo'lovchining sug'urta hodisasini yuzaga keltirishga qaratilgan qasddan qilingan harakatlari natijasida uning hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga zarar yetkazilganligi.

Yuqorida keltirilgan qonunning 12- moddasiga ko'ra tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta tovonini qoplash haqida shunday ko'rsatib o'tilgan:

Sug'urta tovonini yo'lovchilarning sog'lig'i, hayoti va mol-mulkiga yetkazilgan ziyon miqdorida, ammo sug'urta puli miqdoridan ko'p bo'lmagan tartibda qoplanadi .

Yo'lovchilarning sog'lig'i , hayoti va mol-mulkiga yetkazilgan ziyon miqdori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan o'rnatilgan tartibda belgilanadi.

Sug'urtalovchi yo'lovchilarning hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga yetkazilgan zararni bartaraf qilish va kamaytirish yuzasidan tashuvchining tashabbusiga yoki sug'urtalovchining talabiga ko'ra kechiktirib bo'lmaydigan choralar ko'rilishi munosabati bilan tashuvchining yuzaga kelgan barcha bildirilgan va isbotlanadigan xarajatlari o'rnini hatto shu choralar muvaffaqiyatsiz bo'lgan tarzda ham qoplaydi. Bunda sug'urta tovonining va tashuvchi ushbu xarajatlarining umumiy miqdorida sug'urta pulidan ko'p bo'lishi mumkin emas.

Sug'urta tovonini sud xarajatlarining, hamda jarimalar va boshqa shunga o'xshash to'lovlarning o'rnini qoplamaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 2-avgustdagi PQ-4412-son qarori ijrosiga binoan, Vazirlar Mahkamasi tomonidan bir nechta qarorlar yuzasidan zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan ommaviy foydalanib, sug'urta xizmatlarining elektron turlarini tezkor joriy etish va rivojlantirish mavzusiga qaratilib bu borada ko'plab ishlar amaliyotda o'z kuchini ko'rsatib qo'ydi .

2021yilga kelib barcha sug'urta turlari elektron shaklda amalga oshirishga ruxsar etildi. 2023-yildan boshlab barcha majburiy sug'urta turlarini qog'ozlarda rasmiylashtirish bekor bo'ldi.³ Bu bilan majburiy sug'urtani amalga oshish osonlashdi va ortiqcha qog'ozbozlikka chek qo'yish fuqarolar manfaatiga xizmat qildi .

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik fodeksiga sharh – T.:
2. "Toshkent" -2013. 115- bet
3. 2 . O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksi – T. "Toshkent-2022 "
4. 3. Fuqarolik huquqi. Darslik. – T .: " Toshkent-2019" 422-424-betlar.
5. 4.Xasanov X.N. "O'zbekiston sug'urta bozori rivojlanishining o'ziga xos xususiyati"maqolasi – 2023, Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. № 6-son.
6. 5. Xalikulova G.T. "Sug'urta tashkilotlarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni qo'llash" maqolasi – 2023, Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. № 5-son.
7. taraqqiyot. № 5-son.

Internet manbalar:

1. [https:// gov .uz /oz/advice/ document/2599](https://gov.uz/oz/advice/document/2599)
2. [https:// lex.uz/doxc/1324474, 3689258,](https://lex.uz/doxc/1324474,3689258)
3. [https:// yuridik.uz /question/ 14855](https://yuridik.uz/question/14855)
4. [https:// kun.uz /121241](https://kun.uz/121241)
5. [https:// official.gov.uz /uz/ servise/487](https://official.gov.uz/uz/service/487)
6. [https:// kompy .info/ 141-son](https://kompy.info/141-son)
7. [https:// genderi.org/page =56](https://genderi.org/page=56)
8. [https:// alskom.uz/uz/region=404](https://alskom.uz/uz/region=404)

³ Xasanov X.N. "O'zbekiston sug'urta bozori rivojlanishining o'ziga xos xususiyati"maqolasi – 2023, Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. № 6-son.